



## Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-iyun holatiga) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan o'tgan



30474

Faoliyat  
ko'rsatayotgan




29018


Yangi tashkil bo'lgan




4550



Faoliyat  
ko'rsatayotgan



Faoliyat  
ko'rsatmayotgan



Yangi tashkil  
bo'lgan

2019-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 4550 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2567 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6538 ta (29,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29018 tani tashkil etgan.


# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-iyun holatiga



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda



27,7 %




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-iyun holatiga 30474 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,7 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,0 % savdo, 19,0 % sanoat, 8,5 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (7330 ta) savdo, (5800 ta) sanoat, (2596 ta) qurilish, (2297 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (2179 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (952 ta) tashish va saqlash, (634 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (474 ta) axborot va aloqa, hamda (8212 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **29018** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6538 ta (29,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %  
(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqar)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Samarqand shahri (9086 ta), Urgut (2544 ta), Pastdarg'om (2320 ta), Samarqand (2064 ta) va Payariq (1595 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (642 ta), Paxtachi (726 ta) hamda Nurobod (792 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-may oylarida 4550 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2567 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish sur'ati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1546 ta), sanoat (1117 ta), qurilish (390 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (328 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (70 ta), axborot va aloqa (87 ta) hamda tashish va saqlash (103 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



328

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



475

Sanoat



1117

Axborot va aloqa



87

Qurilish



390

Tashish va saqlash



103

Savdo



1546

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



70


Boshqa turlar

i

434


# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (1406 ta), Samarqand (446 ta), Pastdarg'om (363 ta) va Ishtixon (296 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot tumanida (96 ta), Kattaqo'rg'on shahrida (107 ta) hamda Narpay tumanida (109 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajada.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 23564 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona



Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



450 ta

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati birlikda.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.




2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 450 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 119 taga yoki 35,9 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda







Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 323 tasi qo'shma, 127 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida 222 ta (jamidagi ulushi 49,3 %), Urgut tumanida 43 ta (9,5 %) va Jomboy tumanida 35 tani (7,8 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Narpay 5 ta (1,1 %), Paxtachi 6 ta (1,3 %), Kattaqo'rg'on 7 ta (1,5 %), Qo'shrabot 7 ta (1,5%) hamda Payariq tumanlarida 8 tani (1,8 %) tashkil etgan.




# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 68 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 10 ta, Turkiya Respublikasi – 12 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 11 ta, Qozog'iston Respublikasi – 3 ta va Koreya Respublikasi – 5 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 33 ta sanoat, 9 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7 ta savdo, 6 ta qurilish va 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)



*2019-yil 1-iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 23427 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 34,7 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-may oylarida 4342 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2502 taga ko'proqdir.*



•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng katta  
ulushi

•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng kichik  
ulushi

•Samarqand shahri  
33,2 %

•Oqdaryo tumani  
3,9 %

•Urgut tumani  
8,9 %

•Bulung'ur tumani  
3,6 %

•Pastdarg'om tumani  
7,9 %

•Jomboy tumani  
3,4 %

•Samarqand tumani  
7,6 %

•Kattaqo'rg'on shahri  
3,3 %

•Payariq tumani  
5,4 %

•Narpay tumani  
3,1 %

•Ishtixon tumani  
5,1 %

•Nurobod tumani  
2,5 %

Kattaqo'rg'on tumani  
4,2 %

•Paxtachi tumani  
2,1 %


•Tayloq tumani  
4,1 %

•Qo'shrabot tumani  
1,7 %











Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23427 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6928 ta (29,6 %) – savdo, 5492 ta (23,4 %) - sanoat, 2442 ta (10,4 %) - qurilish, 2051 ta (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2076 ta (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 891 ta (3,8 %) - tashish va saqlash, 495 ta (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 441 ta (1,9 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2611 tasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




● Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi   
 ● Sanoat   
 ● Qurilish   
 ● Savdo   
 ● Tashish va saqlash  
● Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar   
 ● Axborot va aloqa  
● Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish   
 ● Boshqa turlar

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1543 ta, sanoat 1115 ta, qurilish 389 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 326 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 52 ta, axborot va aloqa 87 ta hamda tashish va saqlashda 103 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (1364 ta), Samarqand (433 ta), Ishtixon (285 ta) va Pastdarg'om (350 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (87 ta) va Narpay (101 ta) tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida (104 ta) tashkil etilgan.




# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyun holatiga)




Ro'yxatdan o'tgan  
Faoliyat ko'rsatayotgan  
Yangi tashkil etilgan




Ro'yxatdan o'tgan  
Faoliyat ko'rsatayotgan  
Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-iyun holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,5 % yoki 1160 tasi sanoat, 27,9 % yoki 995 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,7 % yoki 740 tasi savdo, 8,4 % yoki 300 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 35 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 32 tasi qurilish, 0,8 % yoki 29 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,4 % yoki 265 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Samarqand viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi .  
Tel.:71-230-85-42(43)**